

## PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

**Imonova Maftuna Baxtiyor qizi**

*TerDPI Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.*

**Tojiyeva Dilnoza Pardayevna**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi globallashuv davrida shaxslarning sog'lom va barkamol bo'lib kamol topishlarida Psixologik xizmatning inson hayotida tutgan o'rnini haqida bayon qilinadi. Shuningdek, aholining psixologlarga, psixologik markazlarga bo'lgan ishonchini oshirish, turli sohalarning rivojlanishida psixologik xizmatning nechog'lik muhimligi haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** psixolog, fikr, munosabat, umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya, psixologik xizmat, mutaxassis.

Psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgacha psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi, ijtimoiy psixologik xizmat va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi zamonaviy psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borilayotgan qator nazariy-ilmiy va amali-uslubiy ishlar psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda psixologik xizmat tizimining bugungi holati va amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollari ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Jumladan, kadrlarning ko'rimsizligi, mutaxassislarning yetishmasligi, maktab ma'muriyati tomonidan psixolog xodimlarga, psixolog vazifasiga noto'g'ri munosabatda bo'lish shular jumlasidandir. Ko'p hollarda, maktab rahbariyati dars yuklamasi yetmagan fan o'qituvchilariga 0,5 shtat birligida psixolog vazifasini majburiy qo'shib berish xolatlari yuz berayotganligi mazkur sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar qatoriga kiradi. Masalan o'rganish maqsadida o'tgan o'quv yili davomida olingan statistik ma'lumotlari tahlili va bevosita tumanlarda faoliyat olib borayotgan maktab amaliyotchi psixologlari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnomalarimiz natijalari bilan

tanishtirmoqchimiz. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey va kollejlarda psixolog shtatlari joriy qilingan. Ammo bu borada bir qancha muammolar ham paydo bo'lmoqda. Jumladan, kadrlarning ko'rimsizligi, mutaxassislarning yetishmasligi, maktab ma'muriyati tomonidan psixolog xodimlarga, psixolog vazifasiga noto'g'ri munosabatda bo'lish shular jumlasidandir. Ko'pxonalarda, maktab rahbariyati dars yuklamasi yetmagan fan o'qituvchilariga 0,5 shtat birligida psixolog vazifasini majburiy qo'shib berish xolatlari yuz berayotganligi mazkur soxaning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar qatoriga kiradi. Psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o'z mehnati mahsullaridan ijtimoiy qoniqish jarayonini tahlil qilish, rivojlantirishga bog'langan ayrim tadqiqotlarning o'rni hamda istiqboliga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Masalan, F.Xersberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. Mazkur izlanish mahsuliga ko'ra mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylik, mustaqillik, o'z-o'zini bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e'tibor berilsa, shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo'lgan mehnat sharoiti yaratilsa, shaxs faolligiga salbiy ta'sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Chunonchi, asab tizimi tipi ancha kuchli bo'lgan kishilar bir xil, ancha sust tipdagi kishilar esa boshqa xil vazifalarni bir muncha oson hal qiladilar. Asab tizimining kuchi bo'yicha farqlanadigan kishilar bir xildagi vazifani hal etishga ko'pincha har xil yo'llar bilan borishlari kerakligini N.S.Leytes o'z asarlarida har tomonlama asoslab berdiki, bu psixologik xizmatda hisobga olinishi mumkin bo'lgan muhim jarayondir. Zero, faoliyat unumdorligi insonning o'z potensial imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanishning mahsulidir. E.A.Klimov, V.S.Merlin, V.M.Rusalov B.M.Teplov tadqiqotlarida ham shaxs temperamenti asosida uning mashg'ul bo'lgan u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishdagi individual uslubning belgilanishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi ma'lumotlar bor. Professorlar E.G'oziev, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarurligi o'qtiriladi: inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart- sharoitlar (ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy huquqiy, pedagogik va yashash muhiti omillari).

-insonning o'ziga taalluqli asosiy tafsilotlar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari. e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyusiya.

-inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ'ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Andreeva G.M.Sotsialnaya psixologiya.Uchebник.-M.:Aspekt Press,1999.376-bet.
2. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya.Toshkent.2007.1-2-kitob.
3. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.
4. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.
- 5.Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1158-1162.